



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№23

25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8. Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11. Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20. Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21. Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ahmedova Diyora Djumabayevna KUNDUZ KO'ZGUSIDAGI "KECHA".....	7
2. Yuldasheva Nodira Rafiqovna O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA O'RGATISHDA NAVOIY ASARLARINING O'RNI	8
3. Murodova Gullola Salimjonovna MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MA'NAVIY QADRIYATLAR TALQINI.....	10
4. Yoqubova dilorom ADABIYOT DARSLARINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI.....	12
5. Мадина Темирова Хайруллаевна АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ.....	14
6. Xayrullayeva Matluba Abdullayevna, To'rayeva Dilorom Toshtemirovna CHO'LPON IJODIGA BIR NAZAR	16



АДАБИЁТ

KUNDUZ KO'ZGUSIDAGI "KECHA"

Ahmedova Diyora Djumabayevna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani
9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: 99- 910-61-60

Annotatsiya: Jadidchilik namoyondalaridan biri bo'lgan, o'zbek milliy uyg'onish davri qaldirg'ochlaridan biri Abdulhamid Cho'lponning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarining mohiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Razzoq So'fi, Zebi, Akbarali, Miryoqub

O'zbekistondagi milliy uyg'onish qaldirg'ochlari obrazini Fitratdan keyin ikkinchi bo'lib adabiyotimizga olib kirgan Abdulhamid Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanini yozish niyati qachon tug'ilgan va Cho'lpon qaysi yili, qaysi oy, qaysi kunda bu asrni yozishga kirishgan? Hozircha bu savolga aniq javob yo'q. Anig'i shuki, Cho'lpon asarni 1934-yili yozib tugatgan-uning birinchi bobi 1935-yili "Sovet adabiyoti" jurnalining yanvar sonida "Konkursga kelgan materiallar" ruknida "Hamal keldi-amal keldi" degan sarlavha bilan chop etilgan. Kitob holida esa "Kecha va kunduz" 1936-yili bosilib chiqdi.

Romanda adib o'zbek xalqining XX asr boshlaridagi hayotini badiiy gavdalantirishni maqsad qilib qo'ygan va bunga to'la erishgan-Turkistonning zulmga, jaholatga, adolatsizlik va haqsizlikka to'la hayotini ochib bergan. Ayni chog'da, aytish kerakki, Cho'lpon katta san'atkor bo'lgani uchun "o'tmish-yomon, bugun-yaxshi" degan jo'n fikr asosida ish olib borolmasdi. Bunday yo'l tutilganda roman avvaldan belgilab qo'yilgan g'oyalarga illyustratsiya bo'lishdan nariga o'tmas va bugungi kunda eskirib, qimmatini yo'qotib, hech kim o'qimaydigan holga tushib qolardi. Shu tarzda, roman shunchaki uch-to'rt qahramonning sarguzashtlaridan naql qiluvchi asar emas, Turkistonning tarixiy taqdirini badiiy ifodalagan asar darajasiga ko'tariladi. Unda chorizmning mustamlakachilik siyosati chuqur ochilgan. O'zbek xalqining erkinlik, mustaqillik haqidagi g'oyalari o'z tajassumini topgan.

"Kecha va kunduz" romanining markazida Zebi, Akbarali, Miryoqub turadi; ularning o'zaro munosabatlari, to'qnashuvlari, taqdirlari roman syujetining asosini tashkil etadi. Adabiyotshunoslar fikricha, bu o'zbek jadidlari harakati boshlagan davrdagi manzara edi. Jadidlar shunday noxush hollar, Zebi fojiasi boshqa takrorlanmasligi uchun uning, Razzoq so'filarning ko'zini ochishni o'zlariga vazifa qilib qo'yganlar. Shu tariqa jadid maktablari, jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatri vujudga kelgani haqiqatdir.

"Kecha va kunduz" romanining poetikasi, uslub va usullari, adibning inson tasviridagi mahorati ham yetarli darajada o'rganilganicha yo'q. Lekin shunga qaramay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, nasrimizning navqiron avlodi Abdulla Qodiriydan ta'lim olgani kabi Cho'lpon romanidan ham til va mahorat bobida ko'p saboq oladi. Yo'qlik qaridan tortib olingan bu asar, garchi kechikib bo'lsa-da, asosiy vazifasini bajaradi-nasrimiz rivojiga salmoqli turtki bo'ladi.

Xullas, o'zbek romanlari endigina shakllanayotgan davrda maydonga kelgan "Kecha va kunduz" hayotiyiligi, milliy ranglarga boyligi, tabiiyligi va samimiyiligi bilan, mazmunining teranligi bilan, qahramonlar karakterining butunligi va to'kisligi bilan realizm tantanasiga katta hissa qo'shdi. "Kecha va kunduz" umrboqiy asarlar sirasiga mansub. Bu asarni o'quvchilar orasida keng miqyosda targ'ib qilishimiz va bugungi dorilamon kunlarda yashayotganlariga shukr qilishlariga davat etishimiz lozim. Zero, bugungi yorqin kelajak o'z-o'zidan bunyod bo'lib qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov XX asr o'zbek adabiyoti tarixi Toshkent "O'qituvchi" 1999-yil
2. Pirmqul Qodirov "Qalb ko'zlari" Toshkent "Ma'naviyat" 2001-yil



О’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA O’RGATISHDA NAVOIY ASARLARINING O’RNI

*Yuldasheva Nodira Rafiqovna
Farg’ona viloyati Furqat tumani
11-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
Telefon:+998903074873
ynodiraxon@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada o’quvchilarni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazish, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning muhim talabi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, sadoqat, halol mehnat.

Alisher Navoiy - mutafakkir shoir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o’zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy merosi shu qadar ulkanki, bu merosni har qancha o’rgangan bilan uning mohiyatiga to’la yetib bo’lmaydi. Unda ilgari surilgan g’oyalar va ularning badiiy talqini asrlar osha kishilarni hayratga solib kelmoda. Chunki Navoiy qalamga olgan, badiiy aks ettirgan turmush muammolari, hayotiy haqiqatlar, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, sadoqat, vafodorlik, rostg’oylik, ma’rifatparvarlik singari g’oyalar bugungi kunda ham ahamiyatini yo’qotgan emas va ularning naqadar zamonaviy ruh kasb etishi buyuk mutafakkir badiiy merosining qadr-qimmatini tobora oshirib bormoqda. Biz shoir ijodiga qayta-qayta murojaat qilar ekanmiz, mustaqillik tufayli yuzaga kelgan milliy istiqlol mafkurasi oldimizga qo’ygan ulug’vor vazifalarni hal etishimizda bu asarlar nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini, yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda ko’makdoshligini his etamiz.

Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bugungi kun pedagogikasining muhim talablaridan biridir. Kasb-hunarga yo’naltirishda va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda badiiy asarlar yetakchi o’rin tutadi. Xususan, bu borada Alisher Navoiy asarlarining alohida o’rni bor. Buyuk mutafakkir shoir, so’z mulkingning sultoni Alisher Navoiy o’zining bebaho va umrboqiy asarlari bilan o’zbek adabiyotini yuksak darajaga ko’tardi. Uning ijodi biz uchun ilg’or intilishlari, hayotiy mazmuni, ko’pqirraliligi bilan yanada qadrlidir.

Alisher Navoiy ijodida halol mehnatni ulug’lash, uning inson hayotidagi ahamiyatini ta’kidlash muhim o’rin tutadi. Buni birgina “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi baytdan ham bilib olishimiz mumkin:

Zaruratkim, solib bir o’zgacha tarx,

Bu “Mehnatnoma”ni qilg’umdurur sharx.

Asar mazmunidan kelib chiqqan holda Farhodning mislsiz qahramonliklari, xususan mehnatsevarligi, mehnatda ko’rsatgan mo’jizalarini ko’zda tutib Navoiy bu asarni “Mehnatnoma” deb ataydi. Dostonning asosiy qahramoni Farhod obrazidagi insoniy fazilatlar orasida mehnatsevarlik alohida ajralib turadi. Mehnat insonni yuksaklikka yetaklaydi, umrini bezab, mazmum-mohiyat kasb etadi. Farhod hunarda kamolotga erishgunga qadar uzoq vaqt tajriba orttirdi. Horundan tosharoshlik hunarni o’rgandi, malaka hosil qildi. Boniydan me’morlikni, Moniydan esa naqqoshlik sirlarini qunt va sabot bilan o’rgandi, bu san’at unga yoqib qoladi. Alisher Navoiy har bir ishda tajriba to’plash, malaka hosil qilish, mashqlar inson uchun shuhrat keltirishi va kutilgan natijalar garovi ekanligini ta’kidlaydi:

Jahonda har kishi kim bir ishi bor,

Ishida ul kishining varz ishi bor.

Farhod Shirin ishqida beorom bo’lib, qiyinchilikarni yengib Shopur bilan Arman yurtiga boradi. Farhod Arman tog’larida ariq qazish bilan mashg’ul bo’lgan kishilarning zahmatini yengillashtirish uchun bor hunarini ishga soladi. Horundan

o’rgangan hunari bilan yeng shimarib ishga kirishar ekan, og’ir mehnatdan ezilganlarga yordam qila turib shunday o’ylaydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir!

Farhod boshqalarga oylab qila olmagan ishlarini bir kunda bajaradi. Farhod o’zi bajarayotgan ish bilan shuhrat qozonadi, bunday afsonaviy bahodirning qahramonligi tezda atrofga tarqaladi,



Shirin ham Farhodning aql-u zakovati, hunariga lol bo'ldi. Navoiy Farhodning insoniy fazilatlarini sanab, Farhodning bolalikdan boshlab ilm o'rganishi, uning bilmagan ilmi qolmaganligi, xususan uning mehnatsevarligini san'at darajasiga ko'tarib tasvirlaydi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlarining o'rni beqiyos. Xususan, "Farhod va Shirin" dostonidagi ijodiy mehnat, kasb-hunar egallash va egallangan kasb-hunar sirlarini o'z o'rnida mohirlik bilan ishlatish, el-yurt farovonligi yo'lida tinimsiz ishlash va ijodkorlik, fidoiylik o'quvchilar ma'naviy salohiyatiga samarali ta'sir etadi, axloqan kamolotga erishishga undaydi. Alisher Navoiy qarashlaridan kelib chiqqan holda qalbida vatanparvarlik jo'sh urib turgan har bir shaxs kasb-hunar egallashi, egallagan kasb-hunarini asrab yurmasdan elimizning gullab yashanishi, odamlarga ko'proq naf keltirish yo'lida sarflashi kerak.

Ulug' mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebaho merosidan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand eta olsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol topishida shunchalik ma'naviy qurolga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oripov A. Va boshqalar. Adabiyotimiz faxri. -T.: O'zbekiston, 2007-yil.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: O'qituvchi. 1997. 267-b.



MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MA’NAVIY QADRIYATLAR TALQINI

*Murodova Gullola Salimjonovna
Zangiota tumani 40-sonli maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
abbos.a_1990@mail.ru; +998977389394*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk adibi Muhammad Yusuf ijodining badiiy mahorati, o‘ziga xos obrazlar talqini tahlili masalasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: She’r, badiiy ijod, obraz, adabiy janr, ijodkor, adabiy muhit, she’riyat, lirik kechinma, obrazlilik, badiiy talqin, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, she’riy san’atlar.

She’riyatda shunday joziba borki, unda turfa xil qarashlar orqali o‘ziga xos tuyg‘ularni his qilamiz, so‘z qudrati orqali anglashimiz qiyin bo‘lgan hayot falsafasiga javob topgandek bo‘lamiz. Shu ma’noda, ma’naviy olamimiz, dunyoqarashimiz shakllanishida badiiy adabiyot, xususan, she’riyatning o‘rni beqiyos. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Bugungi kunda farzandlarimizni ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda“ [1.37].

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodiga nazar tashlar ekanmiz shoirning butun ijodi inson ma’naviyatini boyitishga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarimizni ardoqlashga o‘rgatadigan, vatanparvarlik ruhini yanada oshiradigan g‘oyaviy maqsad hamda betakror badiiy ifodani kuzatamiz. Shoirning “Oqibat”, she’ridagi quyidagi misralarga e’tibor qilaylik:

Mehr yuraklarda qolsa ichikib,
Oqibat ham bo‘lgay anqo urug‘i.
Elning kichigini g‘ajir kichigi
Ulug‘ini esa ulug‘i...[2. 64].

Shoir nazdida agar insonda mehr bo‘lmasa, undan oqibat kutish befoyda. Yurakda mehr yo‘q ekan, yosh-u qari bir-birini hurmat qilmaydi, chunki ularning qalbida haqiqiy va samimiy mehr-muhabbat tuyg‘usi shakllanmagan.

Ma’lumki, badiiy adabiyot inson ma’naviyatini ozuqlantiradi, unda shunday sehrli kuch borki insonni qayta tarbiya qila oladi. Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’rlarni o‘qib beixtiyor hayajonga tushamiz. Nihoyatda oddiy xalqona so‘zlar orqali ko‘pchilik anglamagan hayot haqiqatini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi. Oqibatda hayotga sinchkovlik va teran nigoh bilan qaray boshlaymiz. Yuqoridagi she’rning quyidagi satrlariga e’tibor qilaylik:

Andisha degan bir bog‘ bo‘lar vayron,
Go‘yo bu chamandan yalmog‘iz o‘tgan.
Onalar qizlarin tanimay hayron,
Qizlar onalarin ismin unutgan [2. 64]

Shoir “andisha”, so‘zini naqadar go‘zal o‘xshatish bilan ta’riflaydi, ya’ni insonda oqibat bo‘lmasa, “andisha bog‘”i vayron bo‘ladi. Onalar o‘zi tarbiya qilgan qizlarini tanimaydi, chunki mehr-oqibatsiz farzand, ota-ona, ona yurt qadrini bilmaydi, hatto o‘z onalarini nomlarini ham unutishadi.

Shoirning “Mehr qolur”, she’rida esa shunday satrlarni uchatamiz:

Qorachiqda porlagan o‘sha,
Iqboliga chorlagan o‘sha.
Dunyoni tor aylagan o‘sha
Mehr qolur, muhabbat qolur [2.13].

Ushbu satrlarda M.Yusuf inson o‘tkinchi ekanligini, dunyoda insondan faqat mehr-muhabbat qolishini ta’kidlaydi. Qilgan yaxshiliklarimiz, ko‘rsatgan mehrimiz orqaligina odamlar yodida abadiy qolamiz, deydi shoir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida, ma’naviy kamol topishida ushbu ijodkorning o‘rni beqiyos.

Nima deysan, ey, g‘ayir inson?
G‘iybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o‘tarsan, inon.
Mehr qolur, muhabbat qolur [2. 13].

Mazkur satrlarda shoir inson xos bo‘lgan azaliy illatlarga ishora qilgan holda hammaning bu



dunyoda omonatligini, bu olamda mehr va muhabbatgina abadiy qolishini uqtirmoqda.

M.Yusuf ijodini kuzatib, ma'naviy kamolotga erishishda badiiy adabiyotning o'rni qanchalik muhim ekanligini yana bir bor anglash mumkin. Zero, "Adabiy asarlar estetik tahlilga tayanib, ma'naviy saboq berish, yoshlarni ma'naviy barkamol qilib insonlar qilib tarbiyalash, ham jisman, ham ruhan tetik, baquvvat, komil shaxslarni shakllantirish adabiy ta'limning yetakchi vazifalaridan biridir [3.12].

Muhammad Yusuf ijodi xususida mulohaza yuritar ekan adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov shunday ta'kidlaydi: "Muhammadjon kamdan-kam tug'iladigan iste'dod egasi bo'lish bilan birga, kamdan-kam shoirda uchraydigan xislat egasi – shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratning emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi [2. 7].

Ta'kidlash kerakki, kamtar va oliyjanob so'z san'atkori, atoqli shoirimiz M.Yusuf ijodi insonga ma'naviy ozuqa berishi, oliyjanob tuyg'ularning kamol topishida, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Barkamol avlod – kelajagimiz tayanchi . Toshkent, "Ma'naviyat", 2010.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, "Sharq", 2007.
3. Mirqosimova M. Adabiy asar tahlili. Toshkent, "Ma'naviyat", 2007.



ADABIYOT DARSLARINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI

*Yoqubova dilorom
Samarqand viloyati Narpay tumani
6-sonli umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
yoqubovadilorom@gmail.com*

Annotatsiya: maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslari samaradorligining tayanch mezonlari yuzasidan ilmiy-metodik fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlari: DTS, Adabiy-nutqiy kompetensiya, pedagogik mahorat, badiiy asar, badiiy tahlil, texnologiya.

Mamlakatimizning ta'lim sohasidagi bosh strategik maqsadi – demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalq milliy an'analari, urf-odatlarini, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya mazmunini tubdan yangilash, pedagogik jamoalar tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir. Mustaqil va erkin tafakkurga ega insonda, o'z navbatida, intiluvchanlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlik sifatleri barqaror bo'ladi. Shuning uchun yurtimizda ijodiy salohiyatga ega barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”*.

Bugun zamonaviy talablar asosida yangilanib borayotgan ta'lim tizimida ayni shu masalalarni hal qilish yuzasidan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. 2012-yildan boshlab ta'lim jarayoniga xorijiy tajribalarga tayangan holda kompetensiyaviy yondashuvning talqin qilinishi, shunga ko'ra yangi tahrirdagi *Davlat ta'lim standartlari* va namunaviy fan dasturlarining ishlab chiqilishi, bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilishi ana shunday samarali ishlar sirasidandir.

DTS va dasturlarda adabiyot faniga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, adabiy ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda shakllantiriladigan adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalar keng yoritilgan. Adabiyot fani dasturida ta'kidlanishicha, majburiy ta'lim tizimidagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. Adabiy ta'limning bosh maqsadi o'quvchilarda milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, ezgulik, vatanparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish, ular haqida xilma-xil talqinlarga duch kelganda ongli va jonli munosabat bildira olishga, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Darhaqiqat, inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish, uning intellektual rivojini, yetuk shaxs sifatidagi kamolotini ta'minlashda badiiy adabiyot nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'qitiladigan adabiyot darslarida badiiy materiallardan unumli foydalanib, o'quvchi yoshlarimizning adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish, ularning dunyoqarashi, ma'naviy olamini kamol toptirish, komil inson sifatida tarbiyalash hozirgi ta'lim tizimining, xususan, adabiy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu nuqtayi nazarga ko'ra, adabiyot darslarida badiiy matnlarni o'rganish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

– o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan so'nmas mehr uyg'otish, badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

– badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda asarni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo'llash;

– o'quvchilar og'zaki nutqining adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

– yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olish malakalarining shakllanishiga erishish;



– *adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o‘z fikrlarini boshqalarga og‘zaki va yozma tarzda yetkazish yo‘llarini egallash;*
– *badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go‘zallik va nafosatni his etishga o‘rgatish;*
– *badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur hamda ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san‘at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.*

Adabiy ta‘lim maqsadlaridan kelib chiqadigan mazkur vazifalarni to‘la-to‘kis bajarish jarayonida o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qib-o‘zlashtirish, tushunish va tushuntirish, poetik matnni tur va janr xususiyatlariga qarab badiiy tahlil qilish, fikrini og‘zaki va yozma shakllarda aniq va obrazli ifodalash kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalari rivojlanadi, kommunikativ, shaxs sifatida o‘z-o‘zini boshqarish, axborotlar bilan ishlash, umummadaniy, ijtimoiy faol fuqarolik kabi tayanch kompetensiyalari takomillashadi.

Bugungi zamonaviy pedagogikada adabiy ta‘lim maqsadlarini samarali hal qilishda badiiy asarlarni o‘rganishga bag‘ishlangan mavzularni adabiy tahlil darslari sifatida tashkil qilish, o‘quv tahlilini filologik tahlil darajasiga ko‘tarishga erishish o‘quvchida dasturda belgilangan adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga, uning ijtimoiy faolligini, ruhiy-ma‘naviy kamolotini ta‘minlashga, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga munosib zamin yaratadi. O‘quvchilarning qaysi yo‘nalish va guruhlarda o‘qishidan qat‘i nazar adabiyot darslarida fan dasturida belgilangan ta‘limiy maqsadni munosib darajada hal qilish, o‘rganiladigan adabiy asarlarning o‘quv tahlili talablarini aks ettirgan badiiy-estetik tahlilini amalga oshirishga erishish pedagogdan yuqori darajadagi ilmiy salohiyat, badiiy tafakkur, metodik tajriba va ijtimoiy-psixologik tafakkurni talab qiladi. Bugun jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari va pedagogik mahorat har bir o‘quvchi bilan individual tarzda ishlashni, darsda o‘quvchilar faolligini, o‘zaro hamkorlikni teng ta‘minlashni, o‘quvchini tashqi ta‘sirlardan himoya qilishni jiddiy taqozo qilmoqda. Adabiyot darslarida badiiy asarni o‘rganish bilan bog‘liq jihatlarni, asosan, badiiy tahlil shaklida tashkillashtirish lozim, natijada o‘quvchi badiiy adabiyotga o‘zgacha qiziqish bilan munosabat bildiradi. Adabiyotni, adabiy asarni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad mukammal tahlil vositasidagina o‘zining munosib yechimini topa oladi. Badiiy tahlil jarayonida o‘quvchilar shunchaki adabiyotning noyob durdonalari, sara asarlar mazmunini o‘zlashtirishlari, muayyan axborotga ega bo‘lishlari mumkin.

Demak, adabiy ta‘lim jarayonida, badiiy asarni o‘qib-o‘zlashtirishda, badiiyatga daxldor nazariy ma‘lumot va tushunchalarni shakllantirishda, shu asnodan ma‘naviy barkamol shaxslarni, intellektual kadrlarni tarbiyalashda, o‘quvchilar qalbida badiiyatga, nafosatga, ezgulikka muhabbat uyg‘otishda ham adabiy asarlarning, adabiyot darslarining, badiiy didaktik tahlilning xizmatlari nihoyatda beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ta‘lim markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. Adabiyot fani bo‘yicha uzluksiz ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari loyihasi. – T.,
2. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T., Fan, 2016
3. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M. va b. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. 1-qism. – T., O‘zPFITL.



АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

*Мадина Темирова Хайруллаевна
Навоий вилояти Учқудуқ тумани 5-мактаб
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси
Телефон: +998 93-318-85-18*

Аннотация: Навоий асарлари орқали маънавиятли авлодни шакллантириш, уларда ота-онага нисбатан ҳурмат ҳиссини тарбиялаш.

Калит сўзлар: Мумтоз асарлар, Навоий ижоди, Шарқда ота-онани эъзозлаш, маънавий тарбия.

Шундай инсонлар борки, улар ҳаётлигидаёқ ўз ҳайкалини ўзи қўяди, улар яратган нодир асарлар ҳанузгача ўзбек халқининг фахри бўлиб келмоқда.

Алишер Навоий ҳам ўзбек адабиётини муаззам чўққига кўтарган ана шундай буюк даҳо. Мутафаккир шоир халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиётимизнинг тенгсиз намоёндаси, миллатимизнинг ғурури, шаън-у шарафини дунёга тараннум қилган ўлмас сўз санъаткоридир. “Таъбир жоиз бўлса, оламда туркий ва форсий тилда сўзловчи бирон-бир инсон йўқки, у Навоийни билмаса, Навоийни севмаса, Навоийга садоқат ва эътиқод билан қарамаса. Агар бу улуг зотни авлиё десак, у авлиёларнинг авлиёси, мутафаккир десак, мутафаккирларнинг мутафаккири, шоир десак, шоирларнинг султонидир”, - деган эди Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов. Навоий асарларида маънавиятли, маърифатли комил инсонни тарбиялашга катта эътибор қаратилган, зеро маънавият –инсонни руҳан покланиш, қалбан улғайишга чорлайдиган, иймон-эътиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган беқиёс кучдир. Маънавият замирида эса мустаҳкам оила кўрғони бунёд этилади. Ҳазрат Навоий талқинида оила- маънавият ўчоғи, ота-она эса шу ўчокни меҳр нури ила қиздирувчи машғалдир...

Дарвоқе, ҳар бир гўдак кўз очиб дунё юзини кўраркан, у энг аввало, оила аталмиш муқаддас даргоҳ бағрида мўътабар зотлар қўлида камол топади. Оила посбонлари саналмиш ота-она дилбанди, жигаргўшаси учун жонини беришга тайёр туради, она алласи ота меҳри орқали мурғак қалб соҳиби оиласига, кадрдон ака-укаларига, ватанига муҳаббат туйғусини вужудида ҳис эта бошлайди. Шунинг учун бир парча этни вояга етказиб, камол топтиришда, бир касб соҳиби бўлиб юртига, халқига хизмат қилишида ота-онанинг меҳнати беқиёс.

Алишер Навоий “Ҳайрат ул-аброр“ достонида ота-онани ҳурмат қилиш, улар хизматида бўлишни шараф деб билади:

Бошни фидо айла ато қошиға,
Жисмни қил садқа ано бошиға,
Тун-қунингга айлагали нурпош
Бирисин ой англа, бирисин куёш.

Шарқда азал-азалдан оила муқаддас даргоҳ саналган, фарзанд тарбиясига катта эътибор қаратилган. Оилада бўлажак фарзандни тарбиялаш бола она қорнида бўлганиданок бошланган. Тарбия бермоқ учун, аввало, тарбиячининг ўзида ҳам жамийки инсоний фазилатлар мужассам бўлмоғи лозим. Аввало, муомала маданияти, сўзлаш одобини уларга ўргатишимиз, ёшлигиданок ростгўйлик, ватанпарварлик руҳида тарбияламоғимиз даркор.

Мир Алишер Навоий фарзанд тарбиялашда айнан мана шу икки жиҳатни тарбиянинг устуни деб билганлар ва “Маҳбуб ул -қулуб” асарида бу ҳақда шундай ёзадилар: ”Тарбияда икки жиҳат муҳим, тўғри сўзлаш ва хушмуомалалик.

Инсон қалбининг қувончу қайғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини Навоийдек теран ифода этган шоир жаҳон адабиёти тарихида камдан-кам топилади. Биз бу бебаҳо меросдан халқимизни, айниқса, ёшларимизни қанчалик кўп баҳраманд этсак, миллий маънавиятимизни юксалтиришда, жамиятимизда эзгу инсоний фазилатларни камол топтиришда шунчалик қудратли маърифий қуролга эга бўламиз.

Навоий асарларидаги ҳар бир масала юзасидан сўз юритилиши ва ривоятлар асосида мустаҳкамланиши ўқувчи қизиқишини орттиради, мушоҳадага чорлайди. Уларни бу ноёб дурдоналарни ўқишга чорлаш, ундаш биргина устозлар эмас, балки ота-оналар зиммасидаги



вазифалардан биридир. Зеро, маънавий дунёсини миллий қадриятлар, ўлмас анъаналар руҳида бойитган, инсон сифатида шакллантирган ота-онанинг фарзанди адабиётга, шеъриятга меҳри бўлакча, маънавияти юксак, иззат-ҳурматга сазовор инсон бўлиб вояга етади. Ҳаётдаги турли-туман воқеалар уларни бефарқ қолдирмайди. Қалбларимизни Ватанга, Навоийга бўлган меҳр ва садоқат нурлари ёритиб турсин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул- қулуб. МАТ. 20 томлик. 14-том. Тошкент: “Фан” нашриёти, 1998 йил.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. -Т., 1999.
3. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Тошкент. 1967.



CHO'LPON IJODIGA BIR NAZAR

*Xayrullayeva Matluba Abdullayevna,
To'rayeva Dilorom Toshtemirovna
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani
14-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan
ixtisoslashtirilgan maktab-internati
ona tili fani o'qituvchilari,
qum14imi@inbox.uz +998903755433*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yosh shoirlar orasida o'zining shoirlilik kuchini ochiq tanita olgan eng birinchi shoir- Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li Cho'lpon butun ijod yo'li davomida "Kecha va kunduz"dek barkamol roman muallifi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Kecha va kunduz", Cho'lpon ijodi, publitistika, Zebi obrazi, ijtimoiy tuzum, poetika, lirika, millatparvar adib, ijtimoiy muhit.

Yozuvchi, ijodkor qaysi zamonda yashamasin, o'z davridan uzoqlab ketolmaydi, mavjud tuzum uning ijtimoiy, siyosiy estetik qarashlariga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yosh shoirlar orasida o'zining shoirlilik kuchini ochiq tanita olgan eng birinchi shoir- Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li Cho'lpon butun ijod yo'li davomida inson va tabiatdan uyg'unlik izladi.

Bugungi yosh kitobxonlar Cho'lponni ko'proq dilbar lirik she'rlar, "Kecha va kunduz"dek barkamol roman muallifi, mohir tarjimon sifatida biladi. Keksa ziyolilarimiz esa bu ko'pqirrali iste'dod sohibini faol jurnalist, noshir, jo'shqin maqolanavis ham bo'lganini yaxshi eslaydi. Cho'lpon maqolalari adib ijodiy merosining salmoqli qismini tashkil etadi.

U ijoddagi ilk qadamlaridayoq publitistikaga murojaat etgan. 20- yillarda turli mavzularda, xilma-xil adabiy shakllarda g'oyat barakali ijod qilgan. Bu maqolalari adib shaxsi, ijodi, hayoti haqidagi tasavvurimizni xiyla boyitadi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani keng kitobxonlar orasida sevib o'qiladigan romandir. Cho'lpon kuni kecha faqat ro'zg'or ishlari bilan band bo'lgan, zulm qamchisini o'z yelkasida sinab kelga xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Va xuddi shu mavzuda ikki qismdan iborat "Kecha va kunduz" romanini yozishga kirishdi. Roman voqealari XX asr boshlarida ro'y beradi. Asarda tasvir etilgan voqea birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekistondagi viloyatlarning birida bo'lib o'tadi.

Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy va tahlil etish maqsadida Zebi obrazini bosh qahramon qilib tanlagan. Kitobxon Zebi orqali asarda tasvirlangan voqealar oqimiga kirib borar ekan, tilga olingan davrda bir tomondan oddiy xalqning, ikkinchi tomondan boylar va amaldorlarning qanday tashvishlari va orzulari bilan yashayotgani qanday turmush tarzini kechirayotganini ko'rsatadi. Yozuvchi Zebi tushib qolgan ana shu tarixiy muhitni shafqatsiz ravishda ochadi. Cho'lpon "Kecha va kunduz" romani orqali o'zbek xalqi tarixining muhim bir davrini keng ko'lamda tasvirlab berdi. Mavjud ijtimoiy tuzumni o'zgartirish mustamlakachilik kishanlarini parchalash lozimligi haqidagi fikr Cho'lpon ijodining bosh masalasi sifatida bu romanda katta bir kuch bilan ifodalanildi. Asarda tasvirlanayotgan voqealardan chiquvchi xulosa shuki, Zebi yashagan davrni tag-tomiri bilan o'zgartirish kerak. Agar o'zgarish bo'lmasa, jamiyatning Zebi singari pok va go'zal farzandlari bo'g'ib tashlanaversa, u holda xalqning va o'lkaning ahvoli og'irlashadi.

Bizning zamonaviy adabiyotimizga bog'liq muammolardan biri shundaki, u haqda yurtimizdan tashqarida juda kam bilishadi. Badiiy asarlarimiz xorijiy tillarga kam tarjima qilingan, albatta, rus tilidan tashqari. O'zbek adabiyotining shoh asarlaridan biri bo'lmish "Kecha va kunduz" romanining so'nggi yillarda oldiniga rus tiliga keyin fransuz tiliga ilk tarjimalari nashrdan chiqqanligi juda quvonarli holdir. Shu o'rinda yozuvchining ijodi haqida yana bir ma'lumotni aytib o'tish joizki, Cho'lponning she'riyat yo'nalishi ham o'zbek she'riyatining alohida sahifasini belgilaydi. Yangi o'zbek she'riyatini ruh va ohang, mazmun va shakl jihatidan yangilashda shoirning xizmatlari benihoya kattadir. U ulug' yozuvchilarimiz Navoiy, Bobur, Fuzuliyning obraz yaratish mahoratidan ijodiy ta'sirlanib, original poetik shakllar kashf etgan. Yozuvchi o'zini doimo tabiat qo'ynida his qilgan. Cho'lpon o'zidan keyingi shoirlarga ijodiy ta'sir ko'rsatdi. Uning she'riy mahorati o'z davrining munaqqidlari tomonidan e'tirof etilgan.

«Kecha va kunduz» romani Cho'lpon ijodiy biografiyasida ham, o'zbek romanchiligi tarixida



ham alohida o‘rin tutadi. Chunki bu asarda Cho‘lponning hayotda orttirgan bilim va tajribalari, she‘riyat va dramaturgiya sohasida erishgan badiiy mahorati jamlandi. Shuning uchun romanni o‘qiganda uni shoirona ko‘ngil egasi yozgani, ko‘p o‘rinlarda yozuvchining lirik kayfiyati yaqqol sezilib turadi. Cho‘lpon XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy muhiti, xususan, chorizmning bosqinchilik siyosatining ichdan yemirilib borayotgani, mahalliy amaldorlarning razil qilmishlarini real aks ettiradi. Muallif millatparvar adib sifatida o‘zbek xalqining turmushida boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlarni, yuragini o‘rtagan hayotiy muammolarni zo‘r mahorat bilan bayon etadi. Cho‘lpon Vatan va millat shoiri edi. U nihoyatda murakkab, ayniqsa, ijodda hurfikrlikka kishan urilgan bir davrda ijod qildi. Shu boisdan Cho‘lpon she‘riyati bag‘ridan Vatan va millat qismatini yulib olib bo‘lmaydi. Bu tuyg‘ular shoirning butun ijodidan o‘chmas iz bo‘lib qoladi. Shoir inson va tabiat, ijodkor va muhit haqidagi she‘rlarida davrning haqqoniy manzaralarini muhrlab ketdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabova X. I “Adabiyot darslarida Cho‘lpon ijodi”
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi -2020 y16 iyun 108-son,
3. Bahrom Ro‘zimuhammad. “Kunduz sarhadlari”. T.: Mehnat, 1999
4. WWW.literature.uz
5. <http://ziyonet.uz>

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000